

Farhod Farmonov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Musiqali teatr san'ati" kafedrası dotsenti (v.b.)
E-mail: farmonovf919@gmail.com*

MUSIQALI TEATR AKTYORLARINI SHAKLLANTIRISHDA JANR VA IJRO USLUBIYATINING ILMIY METODOLOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada musiqali teatr aktyorlarini shakllantirish jarayonida janr va ijro uslubiylatining ilmiy-metadologik ahamiyati tahlil qilinadi. O'zbek musiqali teatri sahna san'atining sintetik shakli sifatida musiqa, dramaturgiya, vokal, xoreografiya va aktyorlik mahoratini yagona estetik tizimda birlashtirishi asoslab beriladi. Tadqiqotda janr tushunchasining nazariy mohiyati, uning asar dramaturgiyasi, musiqiy ifodasi, konflikt tabiati va qahramonlar tizimiga ta'siri ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *musiqali teatr, aktyorlik mahorati, janr, ijro uslubiylati, opera, operetta, myuzikl, musiqiy dramaturgiya, vokal ijrochilik, plastik ekspressiya.*

THE SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL SIGNIFICANCE OF GENRE AND PERFORMANCE STYLE IN THE FORMATION OF MUSICAL THEATRE ACTORS

Abstract. *This article analyzes the scientific and methodological significance of genre and performance style in the process of training musical theatre actors. Uzbek musical theatre, as a synthetic form of stage art, is substantiated as an integrated aesthetic system that unites music, dramaturgy, vocal performance, choreography, and acting skills. The study reveals the theoretical essence of the concept of genre and its influence on the dramaturgy of a work, musical expression, the nature of conflict, and the system of characters.*

Keywords: *musical theatre, acting mastery, genre, performance style, opera, operetta, musical, musical dramaturgy, vocal performance, plastic expressiveness.*

O'zbek musiqali teatri – sahna san'atining noyob va ko'p qirrali ko'rinishini o'zida jamlagan san'at turi hisoblanib, bu san'at turi musiqa, dramaturgiya, vokal, raqs, haykaltaryoshlik va aktyorlik mahoratini yagona, uyg'unlashtirilgan estetik tizimga birlashtiradi. Bu san'at shaklining asosi, ya'ni o'zagi bo'lmish, janr va ijro uslubiylari tushunchalari teatr san'atida muhim o'rin tutadi. Ularni ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tadqiq etish, nafaqat aktyorlik ta'limining metodologik asoslarini mustahkamlaydi, balki musiqali ijrochilik nazariyasiga ham yangi qatlamlar qo'shadi.

Janr – badiiy asarning arketipik zamini va shakllanish jarayonidir. Janr (fransuzcha “genre” – tur, xil) san'atshunoslikda asarlarni umumiy estetik xususiyatlari, tarixiy rivojlanishi va o'ziga xos konvensiyalari asosida tavsiflovchi fundamental kategoriya sifatida baholanadi. Musiqali teatr kontekstida janr, asarning tashqi kompozitsion tuzilishidan tashqari, uning ichki mazmun qatlami, badiiy ifoda vositalari, estetik maqsadlari va funksional rolini ham belgilaydi. Har bir janr o'ziga xos estetik mezonlar majmuasi, dramaturgik tamoyillar va sahna poetikasiga ega.

Asar syujetining qurilishi (fabula va syujetning o'zaro nisbati), konfliktning tabiati (ichki psixologik, ijtimoiy-siyosiy yoki transsendental), qahramonlar arketipi (individuallashgan psixologik, yoki kollektiv obrazlar) va harakat dinamikasining rivojlanish mantig'ini belgilovchi asosiy katalizator janr hisoblanadi.

Opera bu – janr yuksak tragedik motivlari, epik qahramonlik lavhalari, teran psixologik ziddiyatlarining ustuvorligi bilan ajralib turadi va unda inson taqdiri, falsafiy-axloqiy dilemmalar chuqur ramziy ma'no kasb etadi. Masalan, Giuseppe Verding “Aida” asarini olsak, bu asarda qahramonlik va fojiaiy ishq epik miqyosda qalamga olingan bo'lsa, Richard Vagnerning “Tristan va Izolda” asarida esa inson psixologiyasining murakkab konfliktlari markaziy o'rinni egallaydi.

Operetta, asosan, vaziyatli komediya bo'lib, yumorga moyilligi va fars elementlari bilan ajralib turadi. Uning oldiga qo'ygan asosiy maqsadi – yengil va optimistik kayfiyat yaratib, tomoshabinga estetik zavq ulashishdir. Shuning uchun

operettaning syujet qurilishi ko'pincha murakkab intriga va karikaturalashgan personajlar bilan boyitiladi.

Myuzikl – dramatik shakllarning keng spektrini, ya'ni komediyadan tortib, jiddiy ijtimoiy dramalar va epik sahnalargacha qamrab oladi. Shu sababli uning janriy chegaralari ancha moslashuvchan bo'lib, turli janrlarni sintezlash xususiyatiga ega. Myuzikl syujetida ko'pincha zamonaviy jamiyat muammolari, shaxsiy o'zgarishlar va ijtimoiy dinamika aks ettiriladi [1].

Janrning musiqiy ifodaga ta'siri. Har bir janr o'ziga xos musiqiy leksika, sintaksis va semantikaga ega bo'lib, bu musiqiy dramaturgiyaning asosini tashkil etadi.

Opera janri, asosan, klassik vokal maktabining murakkab garmonik tuzilmalari, polifonik elementlar va orkestr partituralarining boyligiga tayanadi. Musiqiy iboralar chuqur emotsional va falsafiy mazmun kasb etadi, leytmotivlar tizimi orqali personajlar va g'oyalar izchil rivojlanadi.

Operettada yengil, o'ynoqi va raqsga chorlovchi musiqa bo'lib, uning vazifasi – quvnoq kayfiyat yaratish, komedik vaziyatni musiqiy vositalar orqali kuchaytirish va tinglovchiga estetik rohat bag'ishlash. Melodiyalar odatda yodda qolarli va ritmik jihatdan aniq bo'ladi.

Myuzikl janrlararo sintezning yorqin namunasidir. Unda pop, rok, jazz, bluz, hatto folklor musiqiy elementlari klassik vokal texnikalari bilan uyg'unlashadi. Bu eklektik yondoshuv myuziklning keng auditoriyaga moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Janr va vokal mahorati. Janr vokal ijrosiga qo'yiladigan talablarni bevosita belgilaydi va ijrochining ovoz imkoniyatlari doirasini aniqlaydi.

Opera: akademik belkanto (yuqori ovoz, nafasni mukammal nazorat qilish, aniq vibrato, boy tembr, legato) talab qilinadi. Bu vokalchidan ovoz apparatining yuqori texnik mukammalligini talab etadi.

Operetta: yengilroq, ba'zan pop-akademik vokal uslublarini o'z ichiga oladi. Vokal partiyalarida diksiyaning aniqligi va matnning tushunarliigi juda muhim. Ovozning jo'shqinligi va jozibadorligi yuqori baholanadi.

Myuzikl: vokal diapazonining kengligi va stilistik moslashuvchanlikni talab etadi. Aktyor turli ovoz tushirish uslublarida (belt, klassik, pop-rok, soul va boshqalar) erkin harakat qila olishi shart. Bu ijrochidan vokal universalizmini talab qiladi.

Janr va plastik ekspressiya (Xoreografiya): janr sahna harakatining xarakterini va raqsning asardagi funksiyasini belgilaydi.

Opera: bunda plastik jestlar ishlatiladi va bu plastik jestlar ko'pincha stilize qilingan va ramziy ma'no kasb etadi, musiqiy ibora bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Raqs elementlari odatda divertisment xarakteriga ega bo'ladi.

Operetta: raqs asarning ajralmas qismi bo'lib xizmat qiladi, harakatlar yengil, dinamik va ko'pincha syujetni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Ko'p hollarda bal zallari raqslari va xarakterli raqslar ishlatiladi.

Myuzikl: raqsga faqat shou elementi sifatida qarash kerak emas, uning asosiy roli syujetni rivojlantiradi va qahramonning ichki holatini ifodalab beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Bu esa turli raqs uslublarini (klassik baletdan tortib zamonaviy xoreografiya, jazz, hip-hopgacha) talab etadi.

Janr va estetik konsepsiya: har bir janr o'ziga xos estetik prinsiplar asosida quriladi.

Opera: u ko'pincha yuksak, tragik, qahramonlik pafosiga ega bo'lib, uning asosiy vazifasi tomoshabinda "katarsis" (ma'naviy poklanish) tajribasini maqsad qiladi. U yuksak badiiy mezonlarga intiladi.

Operetta: asosan ko'ngilochar, yengil va optimistik ruhga ega bo'lib, "gelotik funksiya" (kulgi orqali yengillik berish)ni bajaradi.

Myuzikl: biz bunda estetik jihatdan juda ko'p xilma-xillikni ko'rishimiz mumkin; ya'ni chuqur ijtimoiy muammolarni ko'taruvchi dramatik asarlardan

tashqari, sof ko'ngilochar shoulargacha bo'lishi mumkin. Uning estetikasi ko'pincha zamonaviy madaniy tendensiyalarni aks ettiradi [2].

Aktyor badiiy asar janriga, davr kontekstiga, mualliflik niyatiga va o'zining shaxsiy ijodiy konsepsiyasiga tayangan holda, asarni sahna voqeligiga aylantirish jarayonidagi usullarining sinteziga ijro uslubiyati deyiladi. Bu jarayon aktyorning individual mahorati, ijodiy tafakkuri va psixofizik imkoniyatlarining janr talablariga moslashuvi orqali namoyon bo'ladi. Ijro uslubiyati ijrochining estetik dunyoqarashini, texnik salohiyatini va sahna mavjudligini belgilaydi. Ijro uslubiylatining asosiy aspektlari quyidagilardan iborat:

Vokal ijro uslubiyati: aktyorning ovoz boshqaruvi, musiqiy frazalarni talqin qilish usullari, dinamik va tembr nyuuanlarini qo'llash mahoratini o'z ichiga oladi.

Opera ijrochisi: katta zallarda ovozini orkestr ustidan eshitiladigan tarzda proyeksiyalashni, vokaldagi virtuozi texnikalarni (koloratura, trillerlar) o'zlashtirishni talab etadi. Bu fonatsiya fiziologiyasi, rezonatorlar nazariyasi va nafas olish mexanizmlari kabi ilmiy bilimlarga tayanadi.

Operetta ijrochisi: ovozga chiroyli yengillik va joziba berish bilan birga, matnni aniq talaffuz qilishni va komedik intonatsiyalarni mohirona qo'llashni o'rganadi.

Myuzikl ijrochisi: turlicha bo'lgan vokal uslublarida (klassik, pop, rok) erkin kuylashni va bir spektakl doirasida ular orasidan osongina o'tishni o'zlashtirib olishi shart. Bu vokal qorishma va stilistik konvergensiya tushunchalarini o'z ichiga oladi.

Plastik-harakat uslubiylati: aktyorning tana tili, jestlari, mimikasi va harakatlarning umumiy xarakterini qamrab oladi.

Operada: harakatlar stilize qilingan va ko'pincha musiqiy iboraga bo'ysungan va simvolik ma'no kasb etgan bo'lib, bunda badiiy statika va ramziy jestika muhim sanaladi.

Operettada: asosan raqs va pantomima katta rol o'ynaydi, harakatlar yengil, dinamik va komedik effektni kuchaytiradi.

Myuziklda: harakatlar ko'pincha realistik bo'lishi bilan birga, syujetni rivojlantirishga xizmat qilishi va murakkab xoreografik ketma-ketliklarni o'z ichiga olishi mumkin. Bu biomexanika, tana nazorati va xoreografik sintez kabi bilimlarni talab etadi [3].

Psixologik-dramatik uslubiyat: aktyor o'zi yaratayotgan qahramonining ichki dunyosini qanchalik chuqur tushunishiga va uni sahna orqali qanday ifodalashiga bog'liq. Bu jarayonga janrning sezilarli ta'siri bo'ladi.

Operadagi qahramonlar: ko'pincha arxetipik va simvolik bo'lib, ularning kechinmalari yuksak pafos bilan ifodalanadi.

Myuzikldagi qahramonlar: ularning evolyusiyasi realistik tarzda ko'rsatilib, ko'pincha chuqur psixologik portretga ega bo'ladi. Aktyor psixologik dramaturgiya qonuniyatlari, motivatsiya nazariyalari va obraz yaratish metodologiyalarini (masalan, K.Stanislavskiy tizimi, M.Chexov texnikasi) egallashi zarur.

Nutq madaniyati va diksiya: musiqali teatrdagi nutq (dialoglar, retsitativlar) ijro uslubiyatining ajralmas tarkibiy qismidir.

Operada: retsitativlarning aniq diksiyasi va intonatsiyasida, ba'zan ritmik nutqning musiqiy ifoda bilan uyg'unligi muhim sanaladi.

Operettada: dialoglar jonliligi bilan, komedik nutqning ustuvorligi bilan, aktyordan improvizatsiya va nutq tezligini talab etadi.

Myuziklda: nutq o'zining tabiiy va erkinligi bilan, qo'shiq va raqsga uyg'unlashishi kerak. Fonologiya, fonetika, intonologiya kabi tilshunoslik sohalarini bu jarayonda o'zining ilmiy asosini topadi va xizmat qiladi.

Markaziy o'rinlardan birida Musiqali teatr pedagogikasi va ijorchiligida janr va ijro uslubiyatining o'zaro bog'liqligi ajralib turadi. Quyidagi manbalar orqali bu bog'liqlikni tushunish mumkin; Janr ijro uslubiyatini shakllantiradi va shu bilan birga, ijrochilarni ma'lum badiiy chegaralar ichida faoliyat yuritishga rag'batlantiradi. Masalan, opera janrining monumentalizmi va pafosligi aktyordan ovozning maksimal quvvatini, dramatik emotsiyalarning yuksakligini va sahna harakatining stilizatsiyasini talab qilsa, myuziklning dinamikligi va sintetikligi

aktyordan tezkor moslashuvchanlikni, ko'p qirrali mahoratni va stilistik universalizmni talab etadi.

Variativ adaptatsiya va individual interpretatsiya: Janrning qat'iy qoidalari va konvensiyalari bo'lsa ham, u aktyorga individual ijodiy interpretatsiya uchun ma'lum erkinlik beradi. Har bir aktyorni janr konvensiyalari doirasida o'zining shaxsiy ijro uslubi bo'lib, u "aktyorlik imzosi"ni yaratadi. Bunda ijrochi janr talablarini o'zining shaxsiy dunyoqarashi va badiiy falsafasi orqali qayta ishlaydi, bu jarayon "uslubiy moslashuvchanlik" va "badiiy polifoniya" tamoyillari asosida kechadi,

Tarixiy dinamika va janrlararo o'zaro ta'sir. Janrlar hamda ijro uslubiyatlari hamisha ham turg'un bo'lvermasdan, ular doimiy ravishda tarixiy evolyusiyaga va o'zaro ta'sirga uchraydi. Yangi janrlarning (masalan, myuzikl) paydo bo'lishi an'anaviy janrlar (opera, operetta) ijrosiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin, ularning ijro uslubiyatiga yangi elementlar (masalan, zamonaviy raqs elementlari) kirib keladi. Bu "janrlararo diffuziya" va "uslubiy gibridizatsiya" jarayonlari san'atning rivojlanishiga va uning zamonaviy kontekstga moslashuviga xizmat qiladi.

Pedagogik metodologiyadagi o'rni. Musiqali teatr aktyorlarini tayyorlash jarayonida, janr va ijro uslubiyatining o'zaro bog'liqligini ilmiy asoslab o'rgatish muhim sanaladi va bu ta'lim jarayoni kompleks va integrativ yondoshuvni talab etadi. Bunda talaba bir qator nazariy fanlardan ya'ni musiqa nazariyasi, dramaturgiya asoslari, san'at tarixi, teatr tarixi, psixologiya, teatr sotsiologiyasidan tahsil olishi kelajakda aktyorga san'atning umumiy kontekstini tushunishga yordam beradi. Amaliy mashg'ulotlardan esa asosiy aktyorlik mahorati (Stanislavskiy, Chexov, Grotovskiy va boshqalar)dan tashqari, vokal darslari (turli janrlarda kuylash), xoreografiya (turli raqs uslublari), sahna harakati, sahna nutqi, salfejo, maqom, milliy qo'shiqchilik kabilar muhim o'rin tutadi. Tanlangan asarni tahlil etishda esa aktyorlarni asarlarni janr nuqtai nazaridan tahlil qilishga, ijro uslubiyatini muallif nuqtai nazaridan va davr konteksti asosida asoslashga o'rgatish

lozim. Yuqoridagi bu fanlar yig'indisi bo'lg'usi aktyorni intellektual salohiyatini oshiradi.

Badiiy uyg'unlik va sintetik g'oya (asosiy maqsad). Spektaklning yagona badiiy konsepsiyasiga erishishi uchun janr va ijro uslubiylatining sintezi muhim sanaladi. Rejissyor, dirijyor, xoreograf, sahna rassomi va aktyorlar jamoasi janrning mohiyatini chuqur anglagan holda, musiqiy-dramatik materialni yagona uslubiyl tamoyillar asosida talqin etadilar. Bu jarayon "kollektiv ijod" va "sinergetik samaradorlik" prinsiplariga asoslanadi, bunda har bir element umumiy maqsadga xizmat qiladi [4].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, musiqali teatrda asarning umumiy badiiy yaxlitligini ta'minlashda janr va ijro uslubiylati o'zaro chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. Janr asarning fundamental karkasini, uning musiqiy va dramaturgik xususiyatlarini belgilasa, ijro uslubiylati bu karkasni aktyorning mahorati, vokal imkoniyati, plastikasi va ichki kechinmalari orqali jonlantirib, uni sahnada hayotiy va ishonarli qiladi. Bu ikki tushunchaning ilmiy-nazariy tahlili musiqali teatr san'atining rivojlanishi, ijrochilik va rejissura metodologiyasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi, shuningdek, bo'lajak aktyor va rejissyorlarga o'z ijodiy yo'llarini topishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Musiqali teatr aktyorligini shakllantirishda janr va ijro uslubiylatining ilmiy-nazariy sintezi aktyorning nafaqat texnik mahoratini, balki uning intellektual salohiyatini, badiiy tafakkurini, estetik dunyoqarashini va ijodiy shaxsiyatini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan integral yondoshuvni taqozo etadi. Bu yondoshuv kelajak aktyorlariga har qanday janrdagi asarni chuqur tahlil qilib, uning ruhini va uslubiylatini to'g'ri aks ettira oladigan, ko'p qirrali va universal ijrochilar bo'lib yetishishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stanislavskiy K. Aktyorning o'z ustida ishlashi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – 468 b.

2. Usmanov R. *Rejissura*. –Toshkent: Fan, 1997. – 220 b.
3. Qobilov N., Dadamirzaev O. *Aktyorlik mahorati /darslik/*. – Toshkent: Navro'z, 2020. – 220 b.
4. Muxammedova G. *Musiqiy tetr aktyorini tarbiyalashning asoslari. 1-2 qism*. –Toshkent : TDSI, 1991. – 250 b.